

ASL ADABIYOTNING BOSH XUSUSIYATI**Ibragimova Yulduzzon G‘ayrat qizi**

ToshDO‘TAU magistranti

ibragimovayulduzzon.27@gmail.comPhd Ilmiy rahbar: **Muhayyo Yo‘ldosheva**

Annotatsiya: Adabiyot va davrni bir-birdan ajratib bo‘lmaydi. Shu bilan birga chin adabiyot davr doirasini doimo yorib chiqadi. Ushbu maqolada asl adabiyotning inson hayotidagi o‘rni, jamiyatning insonga ta’siri kabi tushunchalar Ahmad A’zamning “Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyasi misolida tadqiq etish maqsad qilindi. Shuningdek, hikoyadagi inson va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: davr, adabiyot, o‘zaro ta’sirchanlik, badiiy tafakkur, ijtimoiy voqelik

Annotation: Literature and the era cannot be separated from each other. At the same time, true literature always breaks the circle of tziyouz.comhe era. In this article, concepts such as the place of original literature in human life, the influence of society on a person were presented on the example of Ahmad Azam’s story “The Man Who Lost His Shadow”. Also, the conflicts between man and society in the story were analyzed.

Keywords: era, literature, interaction, artistic thinking, social reality

KIRISH

Davr va inson doim biri ikkinchisini taqozo etadi. Davr ta’sirida inson o‘zgaradi va o‘zgargan inson butun boshli davr yaratadi. Muayyan davr mobaynida jamiyatda yuz bergan o‘zgarishlar badiiy adabiyotda ham o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Biror badiiy asarning tasvir nozikligini, obrazlar tizimini to‘g‘ri tushunmoq, tili, jozibasini his etmoq uchun shu asar yaratilgan davr badiiy tafakkuriga xos xususiyatlarni bilish kerak bo‘ladi.

“Davr va adabiyot g‘oyat murakkab muammodir. Chunki zamonning asosiy belgisi uning tinimsiz harakatdaligi, o‘zgarib turishi bo‘lsa, asl adabiyotning bosh xususiyati uning o‘zi yaratilgan zamonga qaraganda ko‘proq yashashga intilishi, barqarorroq bo‘lishga urinishidir. Zamonda turib zamonni ko‘rish qiyin, uning biror jihatini baholash yanada mushkul”¹

O‘zbek adabiyotida iste’dodli, bir- birini takror etmaydigan, o‘z so‘ziga va o‘z yo‘liga ega bo‘lgan ijodkorlar bisyor. Ularning har biri olam va odamni o‘zgacha tasvirlaydilar. O‘zbek adabiyotining ana shunday so‘z ustalaridan biri, ajoyib yozuvchi, adabiy tanqidchi, ssenarist va telejurnalist Ahmad A’zamdir. Yozuvchining shu kungacha “Oyning gardishi”, “Bu kunning davomi”, “Asqartog‘ tomonlarda”, “Soyasini yo‘qotgan odam” va “Hali hayot bor” kabi nasriy asarlar, “Mas’ul so‘z” nomli adabiy-tanqidiy maqolalar to‘plami hamda “O‘zi uylanmagan sovchi”, “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” romanlari chop etilgan.

Adabiyotshunoslar Qozoqboy Yo‘ldosh va Muhayyo Yo‘ldoshevalar Ahmad A’zam ijodi borasida so‘z yuritar ekanlar, quyidagi fikrlarni ta’kidlashadi: “Ahmad A’zam asarlarida odatdagiday boshi va oxiri aniq voqealar, sabab va oqibat doirasida harakatlanadigan qahramonlar tasvirlanmaydi. Bir qarashda ijtimoiy salmoqdan mahrum mayda tafsilotlarning adoqsiz silsilasi aks etganday tuyulguvchi bu asarlarni tushunish oson kechmaydi. Chunki bu tafsilotlar zamiridagi ma’noni o‘qirmanning o‘zi topishi kerak bo‘ladi. Bunday yaratiqlar adabiyotni yangilabgina qolmay, kitobxonlar didining o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bilan

¹ Qozoqboy Yo‘ldashev .Yoniq so‘z. T.:Yangi avlod , 2006

ham ahamiyatlidir. Ahmad A'zam asarlarining ichki mexanizmi qandayligini, ularning badiiyatini ta'minlagan omillar nimalardan iboratligini aniqlashga urinish o'qirmanga hayotning ko'zga tashlanavermaydigan mayda hodisalari zamiridagi ulkan ma'nolarni anglash imkonini beradi".²

TAHLIL VA TALQINLAR

Ahmad A'zam asarlarining har biri hozirgi o'zbek adabiyotining nodir asarlari xazinasidan munosib o'rinni o'rganishadi. Yozuvchi o'z asarlarida xalq tili go'zalliklarini mahorat bilan qo'llagan, shuningdek, o'zbek xalqining ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy hayotini haqqoniy, nihoyatda teran fikrlar asosida yoritib bergan betakror yozuvchilarimizdan biri hisoblanadi. Ahmad A'zam qahramonlari o'z hayotini va atrofdagilarining hayotini, faoliyatini tahlil etadi, ularga tanqidiy kinoyaviy munosabatda bo'ladi. Yozuvchi o'zi bilan o'zi gaplashayotgan, o'zi bilan o'zi kurashayotgan, fikrlayotgan, muhokama-mulohaza yuritayotgan kishilar ruhiyatidagi ziddiyatlarni ko'rsatib berish orqali chuqur psixologik tahlilga erishadi.

Ahmad A'zam asarlarida insonlar ruhiyatining nozik tomonlari va ijtimoiy muammolarni aks ettirishga uringan. U inson va tabiat, inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'ziga xos mahorat bilan tasvirlaydi.

Adibning "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasi zamonaviy o'zbek adabiyotida ramziy ma'nolar va falsafiy tahlilning yorqin namunasi hisoblanadi. Ushbu asar insonning o'zligini anglash, ma'naviy qadriyatlarini yo'qotishi va jamiyatdagi begonalashuv muammolarini ochib beradi. Hikoyaning qahramoni orqali adib inson hayotining murakkab ichki qatlamlarini ochishga intiladi.

Hikoya bosh qahramoni odatiy kunlarning birida o'zidaa qandaydir o'zgarish sezadi lekin, gap nimadaa ekanligini anglay olmaydi : "O'shanda menga nima bo'lganini o'zim ham bilmayman, buni hozir ham tushuntirib berolmayman".³ Shu kabi his-tuyg'ularni boshidan kechirgan qahraman odatiy hayotida davom etadi. Yozuvchi bu jarayonlarni batafsil ipidan ignasigacha aniq qilib ifodalaydi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha u o'zining soayasini yo'qotib qo'yadi va buni ham hamkasbi Barot aytgandan keyingina payqaydi : "...Ishxonamizning soyasidan chiqib, sal yurganimizdan keyin mening gaplarimga ha-hu deb yerga qarab ketayotgan Barot bir to'xtadi-da, dabdurustdan: "Iy-e, sening soyang qani! Qizig'-u!", deb qoldi. Avvaliga Barotning gapini to'g'ri tushunmadim, "Shu ham hazilmi", demoqchi bo'lib, beixtiyor yerga qarasam, mendan yerga soya tushmayapti! Tuyqusdan kallamga bir narsa kelmadni. Lekin, mana, soya, mendan tushgan soya yo'q! Oftob tomon bo'lsa kerak degan ilinjda osmonga qarab, keyin soya tushadigan joyni mo'ljal qilsam, oppoq! Ya'ni oqarib ketgan asfaltning o'zi! Oftob mendan to'ppa-to'g'ri o'tib, yerga tushyapti, o'rtada men yo'q (hikoyadagi birlinchi aytlayotgan xabar shu - odamning yo'qligi. Nega yo'qligi kitobxonga havola qilinadi, maqolada sizga)! Barotning oyoqdan boshlangan, boshi ham do'mpayib turgan soyasi bor. Oftob tikkada charaqlab turgani uchun kalta, girdig'um, lekin, har qalay, odamning soyasi-da! Meniki esa yo'q! Rostdan yo'q! Dovdirab qoldim-u, lekin bo'lishi mumkin emas, ikkovimizning ham ko'zimizga shunday ko'rinyapti, hozir soyam lip etib yerga tushadi, degan bir mustarlik ham bor. Bema'nilik-da, axir, shunaqasi ham bo'ladimi?"⁴ Asar shu joyiga yetganda o'qirmandan ham shunga o'xshash savollar tug'ilishi tabiiy holat . O'zi haqiqatdan ham inson soyasini yo'qotishi mumkin? Biz bu savolga ongli ravishda "yo'q bunday bo'lishi mumkin emas" - deya javob beramiz. Ammo

²Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosheva "Ruhiyatning betakror jilolari" maqolasidan

³ Ahmad A'zam "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasidan

⁴ Ahmad A'zam "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasidan

asarni o‘qishda yozuvchining mahoratini ham unutmasligimiz lozim. Aslida soyaning yo‘qolishi hayotta ro‘y berishi mumkin bo‘limgan hodisa. Shu sababli ham yozar kinoyaviy usuldan foydalanadi .Romantik kinoyaviy asar yozishni uncha-muncha yozuvchi eplay olmaydi. Chunki yozuvchi voqeа va qahramonlarni o‘ziga xos badiiy to‘qima asosida izohlashi shart .O‘sha badiiy to‘qimaga kitobxon chippa-chin ishonishi kerak.Ishonilishi qiyin bo‘lgan bunday badiiy to‘qima orqali yozuvchi jamiyatda bunga bo‘lgan munosabatni ko‘rsatadi.Bu munosabatlar ortida Ahmad A’zamning yumori va kinoyasini ko‘rshimiz mumkin. Bunday humor Said Ahmad ijodida ham uchraydi. "Sobiq" hikoyasida buni yaqqol ko‘rshimiz mumkin.

Hikoyada ramziy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi. Hikoyada soya insonning ichki dunyosining ko‘rimmas qismi, o‘zlik va ma’naviy to‘kislikni ifodalaydi. .Soyaning yo‘qolishi qahramonning ma’naviy va ruhiy qashshoqligini, o‘zligini yo‘qotganligini bildiradi. Ahmad A’zam soyani insonning ichki dunyosi, ma’naviy o‘zagi sifatida talqin qiladi.

Hikoya davomida qahramon o‘zi bilan muloqotga kiradi, demakki, voqelar uning ongida davom etadi .Shunchaki qaralganda soya inson hayotida muhim ahamiyatga ega emas. Lekin hikoyada ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi: “Odamlar nima deydi? Ishxonadagilar... Xayol ke-etdi! Boshliq chaqirtiradi-da, iljayib: “Xo‘-o’sh, ukam, nima qildik? -deydi. - Ishlayvering desam, ahvol bunaqa, ishdan bo‘sang, desam mehnat qonunini - KZOTni buzganizingizcha yo‘q, lekin ichimizda boshqacha odam bo‘lishi... Hay-hay, yo o‘z ixtiyorингiz bilan ariza yozasizmi-a?”⁵

Asar davomida bu voqaye shunchalik jiddiy tus oladiki, hatto yigitning ishxonasidagilar “soya yo‘qligi” uchun majlislar qilishadi, alohida shtab ochiladi. Hatto uni ko‘rish uchun nufuzli korxonalardan kazo-kazolar ham tashrif buyuradi: Qani, ketdik, Samijon Salimovichning o‘zları keptilar!” “Tushmayman! - deyman. Jonga tegib ketdi-ku! Maymun o‘ynatyapmanmi?” “Hay-hay, ukam, shundoq baobro‘ odam sizni ko‘rgani kelsayu siz xursand bo‘lish o‘rniga... - deydi boshliq- Sizdan nima ketdi, tushib, o‘n qadamcha aylanib. Yana qaytasiz, vassalom!” Tushsam, haligi Samijon Salimovich degani coyam yo‘qligini ko‘rgani kelganini yashirib, o‘zini arxitektor ko‘rsatadi: “Da-a, to‘g‘ri, bino eskirgan, ministrlikning orqasiga xunuk yamoqdek bo‘lib turibdi”, deydi, viqor bilan gapirishga urinadi, lekin tovushi titrab ketadi - ko‘zi mening oyog‘im tagida, o‘zimga qarashga qo‘rqadi.”⁵

Yozuvchi tasavvurga sig‘maydigan illuziya yaratish orqali jamiyatdagи ijtimoiy munosabatlarga kinoyaviy tanqidiy nigoh tashlaydi. Deylik, byurokratizm, o‘z vaqtini, umrini behuda ishlarga sarf etayotgan kishilar, hamkasblarining qahramonimizning holatiga siyosiy tus berishlari, ahmoqona mulohazalar, fikrlash, siyosat, ijtimoiy tuzum ustidan yozuvchining ayyorona va aqli kulgasini ko‘rshimiz mumkin: “Botir aka so‘z oladi: “Men boshlig‘imizning gapidan shuni tushundimki, bu yigitga oramizda o‘rin yo‘q ekan. Nega? Soya yo‘qligi uchun! Mirqosim buni g‘oyaviy buzuqlik, deyapti. Og‘zim bor deb gapirib, o‘zimiz xato qilmaylik-da. Mana, bir vaqtlar shunaqa gaplar bilan qancha shoир, yozuvchi, siyosiy arboblarimiz qamalib, otilib, keyin reabilitatsiya bo‘ldi. Bu yigitni uch-to‘rt yildan beri bilamiz yaxshi yigit, lekin, to‘g‘ri, ko‘p o‘qiydi, ammo ko‘p o‘qigani uchun ko‘p narsani biladi. Mana, soyasi yo‘qolib qolibdi, lekin shu bilan yomon odamga aylanib ketdi, desak, xato qilib qo‘ymaymizmi? Balki boshqa qobiliyati ochilgandir? Shaxsan mening bu masalada o‘z fikrim bor: yuragi toza, ko‘nglida kiri yo‘q, oq, niyati yaxshi - yorug‘, shuning uchun undan yerga qora soya tushmaydi”. “Hay-hay, - deydi boshliq. - Bizlar-chi?”. “Nima bizlar?”, - deb tushunmadi Botir aka”⁶ .

⁵ Ahmad A’zam “Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyasidan

⁶ Ahmad A’zam “Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyasidan

Yana bitta diqqatni tortadigan joyi yigitni chet el adabiyotlarini o'qishi sababli shu ahvolga tushgan degan fikrlar ham ilgari suriladi: "Ko'pdan beri shu bolada gumonim bor, buning ideologiyasi buzuq deb partkomimizga ham aytganman. Chunki g'oyaviy yot, bema'ni adabiyotlarni ko'p o'qiydi. Aksariyati chet elliklarniki. Bir kuni xonasiga kirsam, stoli ustida Xeminguyey, Folkner degan amerikaliklarning kitobi turibdi ekan. Hey, uka, yosh joningni o'ylamaysanmi, nima qilasan antipartiyaviy kitoblarni o'qib, desam, bular bizga do'st progressiv yozuvchilar-ku, deb ustidan kulgandek bo'ldi. Axir, o'sha chet ellik yozuvchilar chet elda yashasa, o'sha yoqda ham o'zining kompartiyasiga kirmagan bo'lsa, yozganlari antipartiyaviy bo'lmay, nima bo'ladi? Men o'qimayman shularni, shunga, mana, o'zim ham, kallam ham sog"".

Asarda insonning jamiyatdagi o'rnini yo'qotishi, odamlar bilan aloqa uzilishi ramziy tasvirlangan. Bu o'zlik va jamiyat orasidagi uzilishni aks ettiradi: "O'zimni odamlar to'dasiga urgim keldi, lekin bu to'da ichida meni hech kim tanimasligi, begona ekanligimni ko'nglim sezib, xonamdan chiqqim kelmay turardi". Hikoyada insonning jamiyatdagi o'rnini yo'qotishi, odamlar bilan aloqa uzilishi ramziy tasvirlangan. Bu o'zlik va jamiyat orasidagi uzilishni aks ettiradi. Ya'ni jamiyat odamdan "hikki"⁷ yaratishga harakat qiladi.

Qahramonning soyasiz qolishi – uning ma'naviy ildizlarini yo'qotganini anglatadi. Uning bor yo yo'qligi atrofidpgilarning hayotida mutlaqo aks etmaydi. Uning yo'qolishi fojea emas, shuningdek, borligi ham baxt yo muvaffaqiyat emas. Shunchaki minglagan, qiyofasiz, kulrang oqimdag'i bir zarra. Ishi, fikri, rejali, tutumi bilan olamda hech narsa qilishna intilmaydigan odam. Shunchaki odam. Orzusi yshq odam. Bu holat zamonaviy jamiyatda qadriyatlarning yemirilishiga ishora qiladi. Qahramon o'z soyasini yo'qotganini anglab, o'zini yolg'iz his qiladi. Bu ruhiy tushkunlik va jamiyatdagi o'zaro aloqalarning uzilganini ko'rsatadi. Hikoyada qahramonning ichki dunyosidagi nomutanosiblik uning hayotiy muammolarini yanada chuqurlashtiradi. Uni hayotdan zavq olib yashashiga monelik qildi. Uning kelajak haqidagi orzu-umidlarini puch yong'oqqa chiqaradi: "Ko'chada soyasi yo'q yigit bilan ketayotganini ko'rgan odamlar menga emas, Mashhuraga achinadi, bechora qizning bir nuqsoni borki, soyasi yo'q yigit bilan yurishga ko'nibdi, deydi. Uchrashaylik, desam, bundan keyin: "Kechirasiz, hali ham sizni yaxshi ko'raman, lekin soyasi yo'q yigit bilan qanday yuraman?", desa-ya"⁸

Asar davomida hamma yigit bilan shug'ullanadi. Soyani yana paydo qilish uchun komissiya ishlaydi, yigitni bir juda tajribali professorga ko'rsatishdi. "Tushunmayapman ham, tushuntirib ham berolmayman. Soyam yo'q, lekin yashab kelyapman soyamni yo'qotgan bo'lsam-da...". Yuqorida so'zlar bilan hikoya yakunlanadi. Yozuvchi o'qirmanga har doim o'z fikrdan, o'z mafkurasiyu o'zing qarashlaridan voz kechmaslikka undaydi. Inson o'zligi uchun, o'z erki, o'z qadriyatlari uchun bir nafas kurashdan to'xtasa, o'zini yo'qotadi demoqchi mening nazarimda. Zero, bir maroraba egilgan bosh, yana takror va takror egilishga mahkumdir.

XULOSA

⁷ "Hikikomori" yoki qisqacha "hikki" – bu atama, asosan, Yaponiyada yuzaga kelgan, lekin dunyoning boshqa qismlarida ham uchraydigan ijtimoiy muammo bo'lib, odamlarning jamiyatdan o'zini uzoqlashtirishi va uzoq vaqt davomida izolyatsiyada yashashini anglatadi. Hikikomori odamlar ko'pincha shaxsiy xonalaridan chiqmaydi, ijtimoiy aloqalarni minimallashtiradi va tashqi dunyo bilan aloqani deyarli uzadi. Hikikomori hodisasi birinchi marta yapon psixiatr Tamaki Saito tomonidan o'rganilgan va ommalashtirilgan. U 1998-yilda bu fenomen haqida o'zining "Hikikomori: Social Withdrawal Adolescence" (Hikikomori: O'smirlilik davridagi ijtimoiy izolyatsiya) nomli kitobida hikikomorilarni tasvirlab bergan. Bu hodisa ayniqsa, Yaponiyada keng tarqalgan bo'lsa-da, keyinchalik boshqa mamlakatlarda ham uchrayotgani aniqlangan. Hikikomori – bu shunchaki ijtimoiy ajralish emas, balki jamiyat bosimlariga qarshi o'ziga xos reaksiya.

⁸ Ahmad A'zam "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasidan

Ahmad A'zamning "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasi inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar, o'zlikni anglash va ma'naviy qadriyatlarning ahamiyatiga bag'ishlangan.Jamiyatdagi talablar shu darajada qat'iyki, o'zgacha boshqalardan ajralib turadigan insonni sig'dirishmaydi. Darhol uni o'z qolipiga solishga, o'zlar uchun qulay inson yaratishga iloji bo'lsa "manqurt shaxs"ga aylantirishga urunishadi. Bizda mustaqil emas, balki bo'ysunib fikrlaydigan insonlar e'zozlanadi. O'zi barcha narsani anglaydigan, tiniq fikrlab erkin mulohaza qiladigan insonlar emas, yuqoridagilar kutgan gapni aytadigan, buyruqlarni so'zsiz bajaradigan insonlar qadrlanadi. O'z so'zingni aytishga urindingmi, darhol "o'rningni ko'rsatib qo'yishadi". Jamiyat daho insonlarni o'z bag'riga sig'dirmaydi . Bu hikoya orqali adib insoniyatni o'z ichki dunyosiga nazar tashlashga, yo'qolgan ma'naviy qadriyatlarni qayta topishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT RO'YXATI:

- 1.Qozoqboy Yo'ldashev .Yoniq so'z. T.:Yangi avlod , 2006
- 2.Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosheva "Ruhiyatning betakror jilolari" maqolasi.
- 3.Ahmad A'zam "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasi
- 4.Bowker, Julie C.; Bowker, Matthew H.; Santo, Jonathan B.; Ojo, Adesola Adebusola; Etkin, Rebecca G.; Raja, Radhi (2019).
5. Miko Suzuki Psixologiya va Sharqiy Osiyo tillari va adabiyoti bo'limida san'at bakaalvriati darajasi uchun mavzusidagi dessertatsiya 2020-yil iyul.
6. zyouz.com